

**O'ZBEKISTON CHO'L ZONASIDA JOYLAGAN SHAHARLAR REKREATSION
ZONALARINING LANDSHAFT DIZAYNI**

R.R.Xolova

TAQQU magistr

Zamonaviy landshaft arxitekturasi uzoq tarixdan shakllanib va rivojlanib kelayotgan bog'park san'atini, uning turli an'ana hamda uslublarini, landshaft qurilmalari va dizayn elementlarini o'z ichiga oladi. Turli mintaqa va xalqlarda turlicha bo'lgan madaniy-ma'rifiy, iqlimiylar, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarda bu uslublar o'sha mintaqalarga moslashib, takomillashib, o'zgarib, yangilanib kelmoqda.

Landshaft so'zi aslida nemischa bo'lib, (Land-yer va schaft-o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikni aks ettiruvchi suffiks), umumadabiy tilda manzara, joyning ko'rinishi degan ma'noni anglatadi.

O'zbekiston hududida mo'tadil va subtropik cho'llar zonasidagi tarkib topgan. Mo'tadil mintaqa cho'llariga Ustyurt platosi, Amudaryo etagining shimoli, subtropik cho'llarga esa, Amudaryo deltasini, Qizilqum, Quyi Zarafshon, Qashqadaryo etagidagi tekisliklar kiradi.

Cho'l sharoitida shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishi, eng avvalo suv resurslariga bog'liq. Shu bois, suv manbalari yetarlicha bo'lgan arid hududlarda ham yirik shaharlar tashkil topgan.

Cho'l zonasida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishiga uch omil-suv, geografik o'rin va tabiiy resurslarning roli benihoyat katta. Buxoro shahrining vujudga kelishida Zarafshon daryosi va uning tarmoqlarining muhim ahamiyat kasb etgan.

Cho'l hududidagi shaharlar rekreasion landshaftini qurar ekanmz biz nimalarga e'tibor berishimiz kerak?

Birinchi o'rinda eng muhim narsa bu - o'simliklar guruhini turkumlariga, va keyin e'tibor qaratadigan muhim omilimiz ularning o'sish tezligi va noqulay sharoitga chidamliligiga hisobga olishimiz kerak.

Landshaft kompozisiyalarini shakllantirishda daraxtsimon butalarning yoshi va o'sish tezligini inobatga olgan holda, hududning nisbatan yorug'lik ko'p tushadigan qismini aynan yorug'lik seuvuchi o'simlik, daraxt, buta va chala butalar bilan loyihalashtirish to'g'ri bo'ladi. Bular: eman, klen, shumtol, oddiy qarag'ay, qora ol'ha va boshqa yorug' sevarlar bo'lib, o'ziga mos hududda yahshi natija beradi. Nisbatan soya ko'proq tushuvchi joylarga esa soyaga chidamli bo'lgan o'simliklar sohta kashtan, archa, chinor, do'lana, shilvi va kalian daraxt yoki butalari bilan hudud landshaftini tashkillashtirish lozim. Loyihalashtirishda dekorativ effektga tezroq erishish uchun esa asosa quyidagi o'simlik turlaridan foydalanish lozim: qayrag'och, shumtolbargli va tatar zarang, majnuntol, yashil shumtol, tikanli archa, oddiy qarag'ay, oq akasiya, do'lana, bog' yasmini va jiydalardan foydalangan ma'qul.